

ZAMIRA IS'HOQOVA

**MUSTAQIL
ISH QANDAY
YOZILADI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ZAMIRA IS'HOQOVA

MUSTAQIL ISH QANDAY YOZILADI

*“Falsafa” fani bo'yicha mustaqil ta'lim uchun
o'quv-uslubiy qo'llanma*



UO'K: 1(075)

74.268.7

I-84

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma Namangan davlat universiteti "Ijtimoiy-iqtisodiy" fakulteti Kengashining 2014-yil 5-iyuldagi 10-sonli qarori bilan tasdiqlangan va nashr qilishga tavsiya etilgan.

Is'hoqova, Zamira

Mustaqil ish qanday yoziladi: "Falsafa" fani bo'yicha mustaqil ta'lim uchun o'quv-uslubiy qo'llanma / Z. Is'hoqova. – Toshkent: «Yangi nashr», 2014. – 64 b.

KBK 74.268.7

ISBN-978-9943-22-153-6

74.4

Mas'ul muharrir:

tarix fanlari nomzodi, dotsent B.Talapov

Taqrizchilar

sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent v.b. A.Abdulazizov,

tarix fanlari nomzodi N.Dehqonov,

tarix fanlari nomzodi N.G'ofurov

"Falsafa" fanidan mustaqil ta'lim uchun tayyorlangan mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma talabalarda mustaqil ish yozish malakasini shakllantirish, uslubiy va axborot resurslaridan oqilona foydalanish, mavzu yuzasidan yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga yo'naltirilgan. Qo'llanmada aks etgan mustaqil ish yozish qoidalari, adabiyotlarni ilmiy o'rganish, mustaqil ish turlari, ularni rasmiylashtirish va baholash mezonlari, shuningdek, mustaqil ish mavzulari namunalari talabalarining mustaqil ishlari bajarishlariga amaliy yordam beradi.

ISBN-978-9943-22-153-6



© «Yangi nashr», 2014-y.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning "Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida"gi Farmonida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini hayotga tatbiq etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb belgilangan. Shuningdek, yurtboshimiz Oliy Majlisning IX sessiyasida so'zlagan nutqida "Faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qad-rini, millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallash uchun fidoiy-lik bilan kurashishi mumkin" deb ta'kidlagan edilar. Darhaqiqat, yoshlarni mustaqil bilim olishga o'rgatish bugunning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biridir.

"Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha Yo'riqnoma"da alohida e'tirof etilgan masala – talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg'ulotlarida ta-labalarni o'qitish bilan birga ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'llanma berish oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biridir.

Talabalar dunyoqarashini ma'naviy-intellektual shakllantirish, ular shaxsini har tomonlama rivojlantirish va bilimni boyitish-ga xizmat qiladigan usullardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu usullardan biri talabaning ilk ilmiy-tadqiqot ishi – mustaqil ishdir. Mustaqil ish biror ilmiy asar, maqola, o'qilgan kitob mazmunining qisqacha yozma yoki og'zaki bayoni bo'lib, ilmiy axborot vazifasini o'taydi.

Mustaqil ish tegishli adabiyot va manbalarning tahlilini qamrab oladi. Unda muayyan mavzu yoritilishi bilan birga, tegishli ilm-iy nazariya, ilmiy xulosalar tahlil etiladi, shuningdek, munozarali

masalalar haqida fikr bildirilib, ayrim masalalar tanqid qilinishi mumkin.

Mustaqil ishda mavzuga oid asar, ilmiy ish va shu kabilarning qisqacha mazmuni yozma shaklda yoritiladi. Shu tariqa yozgan mustaqil ishini o'qib berayotgan shaxs "referent" deyiladi. Mustaqil ish yozish jarayonida talaba yechilishi lozim bo'lgan muammoning tub mohiyatini tushunishi, ularni hal qilishni, fikrlashning analiz, sintez, taqqoslash, tavsiflash, tizimlashtirish, umumlashtirish, konkretlashtirish kabi amallarni bajarishi lozim bo'ladi. Demak, mustaqil ish talabaning mustaqil ijodiy ishidir.

Talaba fan bo'yicha mustaqil ish mavzusini belgilab olgandan so'ng unga oid adabiyotlar bilan tanishadi, ulardan kerakli ma'lumotlarni oladi, manbalarni solishtirib chiqadi.

Mustaqil ish O'zbekiston Respublikasida ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, umumiy ta'lim maktablarida didaktik vosita sifatida qo'llaniladi.

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma oliy o'quv yurti talabalariga mustaqil ish yozish jarayonida qo'l keladi, degan umiddamiz.

Qo'llanma yuzasidan bildirilgan tanqidiy fikr-mulohaza va takliflar muallif tomonidan e'tiborga olinadi.

Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha YO'RIQNOMA

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlagan sohasi bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan; masalaga ijodiy yondashgan holda muammoli vaziyatlarni to'g'ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Ma'lumki, axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari paytida talabalarga yetkazish qiyin. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi.

Shuning uchun talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'llanma berish oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Talaba mustaqil ishi (TMI) – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidai fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

O'qishning boshlang'ich bosqichlarida talabalar mustaqil ishlari tashkil etish bir qator vazifalar bilan bog'liq. Ayniqsa, birinchi va ikkinchi bosqich talabalarining ta'limning navbatdagi turi – oliy ta'lim talabalariga ko'nikishi qiyin kechadi. Chunki ular ta'lim olish

jarayonida o'z mustaqil faoliyatlarini tashkil qilishni deyarli bilishmaydi. Ma'lumotlarni qaysi manbadan qanday topish, ularni tahlil qilish va zarurlarini ajratib olib tartibga solish, konspektlashtirish, o'z fikrini aniq va erkin ifodalash, o'z vaqtini to'g'ri taqsimlash, shuningdek, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini to'g'ri baholash ular uchun katta muammo bo'ladi. Eng asosiysi, ular mustaqil ta'lim olishga ruhan tayyor bo'lishmaydi. Shuning uchun har bir professor-o'qituvchi dastlab talabada o'z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg'otishi, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishni to'g'ri tashkil qilishga o'rgatib borishi lozim bo'ladi.

Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalarning kursdan-kursga murakkablashib, kengayib borishini hisobga olgan holda ularning tashabbuskorligi va rolini oshirib borish zarur. Shunda mustaqil ta'limga ko'nika boshlagan talaba faqat o'qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o'zining ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, o'zi zarur deb hisoblagan qo'shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o'zlashtirishga o'rganib boradi.

Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi jihatlar e'tiborga olinishi lozim:

- o'qish bosqichi;
- muayyan fanning o'ziga xos xususiyati va o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;
- talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (tayanch bilimi);
- fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasi;
- talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestr-dan-semestr-ga ko'nikmalar hosil bo'lishiga muvofiq ravishda o'zgarib, oshib borishi lozim. Ya'ni, talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularni topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashishga o'rgatib borish kerak bo'ladi.

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
- kurs ishi (loyihalari)ni bajarish;
- bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasi uchun materiallar to'plash;
- hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish;
- maket, model va badiiy asarlar ustida ishlash;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- ilmiy maqola tezislar va ma'ruza tayyorlash;
- amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash;
- uy vazifalarini bajarish va boshqalar.

Fan xususiyatidan kelib chiqqan holda talabalarga mustaqil ish uchun boshqa shakllardagi vazifalar ham topshirilishi mumkin. Talabalarga qaysi turdagi topshiriqlarni berish lozimligi kafedra tomonidan belgilanadi. Topshiriqlar puxta o'ylab ishlab chiqilgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarining auditoriya mashg'ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va to'ldirishga xizmat qilishi kerak.

Mavzuni mustaqil o'zlashtirish. Fanning xususiyati, talabalarining bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k o'qituvchidan maslahatlar oladilar. Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matn kafedrada himoya qilinadi.

Mustaqil ish (referat) tayyorlash. Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo'lgan biror mavzu bo'yicha mustaqil ish (referat) tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, internetdan olingan ma'lumotlar, elektron kutubxona materiallari va hokazolar) foydalanib materiallar yig'adi, tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo'yicha imkon darajasida to'liq, keng ma'lumot berishga harakat qiladi. Zarur hollarda o'qituvchidan maslahat va ko'rsatmalar oladi. Yakunlangan mustaqil ish (referat) kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Ko'rgazmali vositalar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, xaritalar, maketlar, modellar, grafiklar, namunalar, musiqiy asar, kichik badiiy asar va h.k.) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga topshirish ham mumkin.

Talaba ko'rgazmali materiallardan foydalanish bo'yicha yozma ravishda tavsiyalar tayyorlaydi va kafedrada himoya qiladi.

Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masala va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish topshiriladi.

Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali jihatlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi. Konsultatsiya paytlarida bajarilgan ishlarning qo'yilgan vazifa va talablarga javob berish darajasi nazorat qilinadi (qayta ishlab kelish, aniqlashtirish yoki to'ldirish taklif etilishi mumkin).

Test, savol va topshiriqlar majmuasi kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash. Talabaga biron bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabanning o'zi tanlashi ham mumkin) ilmiy (referativ) xarakterda maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi, tahlil qiladi, zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo'shimchalar, izohlar kiritadi, o'z nuqtayi nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi.

Tayyorlangan maqola, tezis yoki ma'ruza kafedrada himoya qilinadi.

Amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash. Bir mavzu yoki bo'lim bo'yicha nostandart, alohida yondashish talab qilinadigan, nazariy ahamiyatga ega bo'lgan amaliy topshiriqlar, ijodiy yondashish talab qilinadigan ilmiy-ijodiy vazifalar, modellar, maketlar, namunalar yaratish vazifasi topshirilishi mumkin. Amaliy topshiriqlar masalani hal qilishning optimal variantlarini izlashga va topishga qaratilgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Talabanning qiziqish va qobiliyatiga qarab unga ilmiy xarakterdagi topshiriqlar berish, o'qituvchi bilan hamkorlikda ilmiy maqolalar tayyorlash va chop ettirish mumkin.

Talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etishda tizimli yondashish, barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzviylashtirish, bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish, tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish zarur.

Mustaqil ish topshiriqlari muvaffaqiyatli yakunlanishi uchun quyidagi talablar bajarilishi lozim:

– maqsad (bilimni mustahkamlash, yangi bilimlarni o'zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish va h.k) aniq asoslanishi;

– vazifa va topshiriqlarning aniq-ravshan belgilanishi;

– topshiriqlarni bajarish hajmi va usullaridan talabalarning yetarli darajada xabardor bo'lishi;

– maslahat va boshqa yordam turlarining to'g'ri belgilanishi (yo'llanma va ko'rsatma berish, mavzuning mazmuni va mohiyatini tushuntirish, muammoli topshiriqlarni bajarish usullari bo'yicha tushuncha berish, ayrim muammoli momentlarni birgalikda hal qilish va h.k.);

– hisobot shakli va baholash mezonini aniq belgilash;

– nazorat vaqti, shakli va turlarini aniq belgilab olish (amaliy seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, konsultatsiya uchun yoki nazorat uchun maxsus ajratilgan vaqt; ma'ruza yo mustaqil ish matni, bajarilgan topshiriqlar daftari, nazorat ishlari, uy vazifasi daftari, kurs ishlari, test, maqola, nostandart topshiriqlar, savollar, maqola, ko'rgazmali jihozlar va ijodiy ishlar;

– savol-javob, bajarilgan ish mazmuni va mohiyatini tushuntirib berish, esse, ya'ni fikrlarni yozma shaklda bayon qilish va h.k.).

Talabalar mustaqil ishini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin:

– auditoriyada amalga oshiriladigan talabalar mustaqil ishlari. O'tilgan mavzuni qayta ishlash, kengaytirish va mustahkamlashga oid topshiriqlar bajariladi;

– auditoriyadan tashqarida amalga oshiriladigan talabalar mustaqil ishlari.

O'quv dasturidagi ayrim mavzularni mustaqil holda o'zlashtirish, uyga berilgan vazifalarni bajarish, amaliy va laboratoriya ishlariga tayyorgarlik ko'rish, ijodiy va ilmiy-tadqiqot xarakteridagi ishlar.

Birinchi tur ishlari talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini o'zlashtirib borish darajasi, amaliy mashg'ulotlarga (amaliyot, laboratoriya, seminar darslari) tayyorgarlik saviyasi va uy vazifalarining bajarilish sifatini tekshirish maqsadida, odatda, nazorat ishlari olish, savol-javob, suhbat, munozara, amaliy topshiriqlarni bajartirib ko'rish va h.k. usullarda asosan amaliyot darslarida nazorat (joriy nazorat) qilinadi. Joriy nazoratda talabaning dars paytida o'tilgan materiallarni o'zlashtirish va uyga berilgan topshiriqlarni bajarishdagi faolligi, bajarish saviyasi va o'zlashtirish darajasi e'tiborga olinadi.

Ikkinchi tur ishlar fanning ishchi o'quv dasturida auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishi belgilangan mavzu bo'yicha ma'lumot va axborotlarni mustaqil ravishda izlab topish, tahlil qilish, konspektlashtirish (yoki referat tarzida rasmiylashtirish) va o'zlashtirish, ijodiy yondashishni talab qiladigan amaliy topshiriqlarni bajarish ko'rinishida amalga oshiriladi. Bu turdagi ishlarni bajarish jarayoni va o'zlashtirish sifatining nazorati darsdan tashqari paytlarda, maxsus belgalangan konsultatsiya soatlarida amalga oshiriladi.

Talabalar mustaqil ishini baholash. Talabalar mustaqil ishlari natijalari amaldagi "Oliy ta'limda talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom"ga asosan baholab boriladi.

Mustaqil ish va uning turlari

Talabalar mustaqil ish yozish orqali falsafiy dunyoqarash, inson hayotining maqsadi, mazmuni va mohiyati, moddiy borliq va ijtimoiy hayot o'rtasidagi o'zaro qonuniyatlar to'g'risida, falsafiy bilimlarning shakllanishi, tarkibiy tuzilishi va rivojining tarixiy bosqichlari haqida, hozirgi dunyoning ilmiy, falsafiy, diniy manzarasi, falsafaning asosiy yo'nalishlari va maktablari, monistik va plyuralistik falsafiy konsepsiyalar, hozirgi dunyoning globallashtirish jarayoni, insoniyatning ekologik va boshqa global muammolari haqida mustaqil va tanqidiy mushohada yuritishni o'rganadilar.

Mustaqil ish mavzusi talabalarning qiziqishidan kelib chiqib tanlansa ijobiy natija beradi. Ana shu jarayonda talabalarda o'z bilim doirasini oshirib, to'ldirib borish ko'nikmasi hosil bo'ladi. Bu esa talabaning keyingi ilmiy izlanishlari uchun asqotadi. Mustaqil ish talabalarning "Falsafa" fanini chuqur o'rganishlari hamda yetuk mutaxassis bo'lishlari uchun foydalidir.

Falsafa fanidan mustaqil ta'limga 30 soat ajratilgan. Talaba mavzu bo'yicha mustaqil ish tayyorlaydi va uni himoya qiladi. Mustaqil ish himoyasi ilmiy munozara shaklida bo'lib, talabaning nutq madaniyati va muloqot odobi ham baholanadi. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, har bir talabaga alohida mustaqil ish mavzulari beriladi. Bu, o'z navbatida talabaning berilgan mavzuga ijodiy yondashishiga va ko'chirmachilikning oldini olishga yordam beradi.

Talabalar mavzuga oid savollarga aniq, ishonchli va dalillarga asoslangan holda javob berishlari lozim. Shuningdek, talabalar adabiy tilning talaffuz me'yorlariga amal qilishi, shoshilmay, ravon va ifodali nutqda gapirishlari kerak.

Nutq matnini o'qib berayotganda quyidagilarga amal qilish foydali. Avvalo mustaqil ish mavzusini aytish, nigohni faqat nutq matnigagina qaratmaslik, mustaqil ishning muhim bandlei va diqqatni jalb etadigan qismlarini alohida belgilash, vaqti-vaqti bilan pauza qilish, matnni juda tez o'qimaslik, bir maromdagi nutqdan saqlanish lozim. Agar past ovozda so'zlansa nutq tushunarsiz bo'ladi, hadeb bir so'z yoki jumlani takrorlanaverilsa nutq zerikarli va tushunarsiz bo'ladi. Talaba mustaqil ish yuzasidan berilgan savollarga javob qaytarishdan oldin savolni diqqat bilan eshitishi hamda qisqa va lo'nda javob berishi maqsadga muvofiqdir.

Mustaqil ish yozish qoidalari

Ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida falsafaning o'rni va mavqei-ni inobatga olsak, mustaqil ish talabalarga mazkur fan bo'yicha turli adabiy manbalarni (monografiya, davriy nashrlardagi ilmiy

maqolalar va shu kabilar) o'rganish qobiliyatini takomillashtirish va ularning natijalari asosida tanqidiy yondashgan holda mustaqil hamda topqirlik bilan materialning mazmun-mohiyatini ifoda etish, ishonchli xulosa va takliflar qilish, yozma ko'rinishdagi ishlarni to'g'ri rasmiylashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishlarida beminat yordam beradi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining Vatan va jahon madaniyati, falsafa fani rivojidadagi hissasi, o'rni, borliqning mazmun-mohiyati, maqsadi va qonuniyatlarini ijtimoiy taraqqiyot bosqichlari va sivilizatsiya konsepsiyalari, insonning mohiyati, ong hamda o'z-o'zini anglash, ma'naviy, axloqiy qadriyatlar, umumfalsafiy uslub va tamoyillar, dialektika, sinergetika, harakat va rivojlanish, makon va zamon haqidagi ta'limotlarni har tomonlama o'rganishlarida mustaqil ishning ahamiyati beqiyosdir.

Mustaqil ish oddiy tarzda materiallarni iste'foda etish, bir yoki bir nechta manbalardagi materiallardan ko'r-ko'rona ko'chirish degani emas. Mustaqil ishda muallif tomonidan adabiyotni o'rganish orqali o'z fikrlari, qarashlari, xulosa va takliflari aniq tarzda ifoda etilishi lozim.

Mustaqil ish matni quyidagilarni qamrab oladi: bajarilgan ishning mohiyati va tadqiqot usulini ifodalovchi asosiy qism; mustaqil ishning asosiy qismini ochib beruvchi aniq ma'lumotlar; qisqa va aniq xulosa.

Mustaqil ish yozish uchun avvalo mavzu belgilab olinadi. Mavzu – ilmiy masala bo'lib, ko'plab tadqiqot masalalariga bo'linadi. Mavzuni tanlash talabdan katta mas'uliyat talab etadi. Mavzu bir necha bosqichda o'z yechimini topadi:

I bosqich. Muammo ifoda etiladi, ya'ni reja tuziladi. Reja – eng qisqa yozma matn bo'lib, fikrlar ketma-ketligini o'zida mujassam etadi va umumlashtiradi. Reja matn mazmunini ochib berish bilan birga manba mazmunini xotirada tiklaydi. Shuningdek, reja konspekt va tezis o'rnini bosadi hamda har xil turdagi yozishmalar, ma'ruza, xabarnoma, hisobot tuzishga yordam beradi.

Reja amaldagi yozmani yaxshilaydi va o'z-o'zini nazorat qilishni tezlashtiradi, e'tiborning bir nuqtada bo'lishligiga va mashg'ulotlar-

ni rag'batlantirishga imkon beradi. Reja orqali o'rganilgan matnning xotirada paydo bo'lishida zamin yaratiladi. Reja mavzuga tegishli yo'nalish berishi bilan ahamiyatlidir. Puxta o'ylab chiqilgan, har bir qismi tanlab olingan material bilan ta'minlangan reja – mustaqil ishni muvaffaqiyatli yozishning muhim asosidir.

II bosqich. Muammo yoritib beriladi. Buning uchun ilmiy adabiyotning kerakli qismlari konspektlashtiriladi. Konspekt deganda reja, ko'chirib olingan matn va tezislarni birlashtirish tushuniladi. Konspekt ifodaning ichki mantiqini ko'rsatadi hamda asosiy xulosa, faktlar, isbotlar, uslublarni o'zida mujassam etadi. Shuningdek, konspekt talabani materialga bo'lgan munosabatini aks ettiradi. Bunda rejali konspekt tuzish maqsadga muvofiq.

Dastlabki reja yordamida tuzilgan konspekt rejaning har bir qismiga mos keladi. Konspektidan faqat talaba emas, balki boshqa kitobxon ham foydalanishi mumkin. Konspektidan mustaqil ish uchun foydalanilayotganda qaytariq, ortiqcha iqtibos (sitata) keltirish, mantiqqa mos kelmaydigan so'z va iboralarni iste'foda etish ma'qul emas.

III bosqich. Mavzu haqida xulosa yasaladi, shuningdek, yangi muammo ham ko'tarib chiqiladi.

Adabiyotlarni ilmiy o'rganish

Mavzuni ishlash jarayonida fanga oid adabiyotlar o'rganiladi va tahlil qilinadi. Mavzuga doir adabiyotlarni solishtirib o'rganish jarayonida yangi taklif-mulohazalar paydo bo'ladi. Adabiyotlarni to'liq tushunish uchun mavzuni qat'iyat va sabr-toqat bilan o'rganish lozim.

Adabiyotlarni ilmiy o'rganish jarayonida ko'chirma, annotatsiyalar, konspektlar qilinadi. Ko'chirmada manbada berilgan qimmatli, dalillarga asoslangan fikrlar to'liq yoki qisqa yozib olinadi. Bu keyingi ijodiy ish uchun asos bo'ladi.

Annotatsiya – manbaning qisqacha mazmuni bo‘lib, annotatsiya yordamida matnni xotirada tiklash mumkin.

Konspekt – u yoki bu birinchi manba mazmunining qisqacha bayonidir. Konspekt talabning o‘z fikri, so‘zlari bilan yozilsa, bu o‘qilganda tezroq anglashiladi va tahlil etiladi.

Mustaqil ish – har xil nuqtai nazarlarni o‘zaro solishtirish va tahlil qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lishni talab etadigan bir yoki bir qancha manbalarni o‘zida mujassam etadigan g‘oyalarning qisqacha yozma ko‘rinishdagi taqdimoti bo‘lib, konspektidan mazmuni va tuzilishiga ko‘ra farqlanadi.

Mustaqil ish mavzuga ijodiy yondashilgan yangi, muallif matn sanaladi. Mustaqil ish ma‘lum manbalarni turlashtirish, umumlashtirish, tahlil va sintez qilishga asoslanib, muayyan savolni ifoda etishni mujassamlashtiradi. Mustaqil ish mufassal isbotlar, solishtirmalar, mulohazalar, baholarni o‘z ichiga olmaydi, aksincha, matnda yangi, muhim savollarga javob beradi.

Mustaqil ish yozish jarayonida hamma narsani xotirada saqlab qolishning qiyinligi tabiiy holdir. Xotirada saqlab qolishning quyidagi usullari mavjud:

1. Mexanik usul – o‘qilganni ko‘plab takrorlash va qayta o‘qishga asoslangan bo‘lib, bular sana, formula, sitata, internatsional so‘zlar va hokazolardir. Sitata – biror matnda, asardan aynan ko‘chirilgan parcha hisoblanadi.

2. Mazmuniy usul – ishlanayotgan mavzuning mazmuni va mohiyati tushunib olinadi.

3. Ixtiyoriy usul – kerakli matn ixtiyoriy ravishda eslab qolinadi.

4. G‘ayriixtiyoriy usul – o‘qish jarayonida hissiyotga ko‘ra yuzaga kelgan emotsiya bilan bog‘liq matnning u yoki bu parchasini tasodifan eslab qolishga asoslaniladi.

Shunday qilib, talaba yozayotgan mustaqil ish mavzusini eslab qolishning universal usulini yuqorida keltirilgan usullarni uyg‘unlashtirgan holda o‘zi kashf etishi mumkin, ya‘ni kimdir yozib esda olib qoladi, kimdir yozmasdan ham esda saqlashi mumkin. Bu jarayon har bir talabning intellektual va jismoniy salohiyatidan kelib chiqadi.

Mustaqil ish degani foydalanilgan adabiyotlarni bus-butun ko'chirish degani emas, balki mavzuni tahlil qilish orqali yangi ilmiy yechimlarga erishishdir. Mustaqil ish mavzusini yoritishda adabiyotlar qancha ko'p bo'lsa, ishning ijodiy samaradorligi, tahlili, o'qimishliligi shuncha yuqori bo'ladi. Manbalar chuqur ilmiy tahlil etilgach, mustaqil ish yozishga o'tiladi.

Mustaqil ishning kirish qismida mavzuning mohiyati, ko'tarilayotgan muammoning dolzarbligi, ko'zlanayotgan maqsad qisqacha ta'riflanadi.

Asosiy qismda mavzudagi yechilishi lozim bo'lgan muammolar tartib bilan hal etiladi. Mustaqil ishning qadr-qimmati muammoli savollar bo'yicha turli qarashlarni tahlil qilish, qabul qilinadigan yoki o'zining tutgan mavqeini asoslash sanaladi.

Xulosa qismida mavzuda qo'yilgan muammolar yechimi taqqoslanadi, yangi ma'lumotlar bilan boyitiladi. Muammoning yechimidan kutilayotgan natija ta'kidlanadi, yangi fikrlar havola qilinadi.

Izoh (snoska) – sahifaning eng pastki qismiga chiziq tortib, satr boshidan yoziladi. Izohlar har bir sahifada alohida tartib raqami bilan ko'rsatilgan bo'ladi.

Izohning matndagi raqam belgisi izoh qilinayotgan ayrim so'zga tegishli bo'lsa, bevosita shu so'zdan keyin, agar butun gapga tegishli bo'lsa, gap oxiriga qo'yiladi. Izoh belgisi hamisha tinish belgisidan oldin yoziladi.

Mustaqil ishda mavzu bo'yicha ishlangan tadqiqotdan foydalanган izlanuvchi (talaba) ko'chirmachilikda ayblanmasligi uchun albatta o'zlashtirilgan materiallar qaysi manbadan olinganligiga izoh (snoska) berilishi shart.

Izohlar quyidagicha beriladi:

a) *"Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz"*.

¹ Karimov I. A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. – T.: O'zbekiston, 1999. 134-b.

b) “Yosh avlod qalbida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, yoshlarimiz iymon-e’tiqodini mustahkamlash, irodasini baquv-
vat qilish, ularni o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan barkamol in-
sonlar etib tarbiyalash, ularning tafakkurida o‘zlikni unutmaslik,
ota-bobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hur-
mat qilish fazilatini qaror toptirishdan iborat”².

c) Sharq mutafakkiri Abu Nasr Forobiy fikricha, “sababsiz oqi-
bat bo‘lmaganidek, oqibatsiz sabab ham bo‘lmaydi”³.

d) “Talaba faoliyatini takomillashtirish bilan uning shaxsini
shakllantirish o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar ularning mustaqil faoli-
yatini rivojlantirish – uning komil inson bo‘lib shakllanish yo‘lla-
ridan biri ekanligini yana bir karra namoyish qiladi”⁴.

Shuni alohida ta’kidlash o‘rinliki, mustaqil ish ravon tilda
aniq yozilgan bo‘lishi va jalb etadigan ko‘rinishga ega bo‘li-
shi lozim. So‘zlar qisqartirilishiga, shuningdek, faqat umumiy
qabul qilinganlardan tashqari xatoliklarga, tushunmovchiliklarga,
fikrlar qarama-qarshiligiga yo‘l qo‘yilmaydi.

² Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman // Fidokor,
2004-yil 8-iyun.

³ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi
nashriyoti, 1993. 134-b.

⁴ Qayumova M. Mustaqil fikrlash – mustaqil ishlardan boshlanadi // Xalq ta’limi, 2004.
90-b.



Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxatini yozish qoidalari

Mustaqil ishning xulosa qismidan so'ng foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati yoziladi. Adabiyotlar talabaning mustaqil ijodiy ishlash qobiliyatini ko'rsatadi. Talabalar shuni yodda saqlashlari joizki, mustaqil ishda foydalanilmagan hamda mustaqil ish matnida yozilmagan manbalar adabiyotlar ro'yxatiga kiritilmaydi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlarni yozishda har bir manba bo'yicha quyidagi tartibga rioya qilinishi lozim:

- muallifning familiyasi va ismi;
- adabiyot nomi;
- nashr qilingan joy nomi;
- nashriyot nomi;
- chop etilgan yili;
- foydalanilgan beti ko'rsatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini yozish tartibi quyidagicha:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaror va Farmonlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari.
4. Alfavit bo'yicha manba va adabiyotlar ro'yxati.
5. Me'yoriy hujjatlar va yo'riqnomalar.

Foydalanilgan adabiyotlarni yozish namunalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov asarlari:

1. Karimov I.A. Ilmu fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilsin / Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. 2. – T.: O'zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili / Bunyodkorlik yo'lidan. T. 4. – T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T. 5. – T.: O'zbekiston, 1997.

4. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T. 8. – T.: O‘zbekiston, 2000.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qonunlari, qarorlari va farmoyishlari

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2003.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” (Yangi tahrirda)gi Qonuni. – T.: Adolat, 1998.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida” 1997-yil 29-avgustdagi Qonuni / Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to‘g‘risida” 1997-yil 6-oktyabrdagi Farmoni / Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998.

Adabiyotlar

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Ibn Sino, 1997.

2. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar / Tanlangan asarlar. T. 1. – T.: Fan, 1968.

3. Avesto. – T.: O‘zME, 2003.

4. Barkamol avlod orzusi. – T.: Sharq, 1998.

5. Kaykovus. Qobusnoma / Fors tilidan Muhammad Rizo Oga-hiy tarjimasini. – T.: Istiqlof, 1994.

6. Ma’naviyat yulduzlari / To‘plovchi va mas’ul muharrir M.M.Xayrullayev. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.

7. Shermuhamedov S. Falsafa va ijtimoiy taraqqiyot. – T.: Fan, 2005.

8. Falsafa. Qomusiy lug‘at. – T.: O‘zME, 2004.

9. Falsafa. Ma'ruzalar matni. – T.: O'AJBNT, 2000.
10. Ergashev I. Siyosat falsafasi. – T.: Akademiya, 2004.
11. Ergashev I. Taraqqiyot falsafasi. – T.: Akademiya, 2000.
12. Yangi va eng yangi davr G'arbiy Yevropa falsafasi. – T.: Sharq, 2002.

Gazeta va jurnallardagi maqolalar

1. Usmonov I. Movarounnahr va Xurosonda “tasavvuf” atamasi // Imom al-Buxoriy saboqlari. – T.: 2005. – № 2. – B. 29 – 31.
2. Olimov U. Boshqarish yo'rig'i // Tafakkur. – T.: 2000. № 4. 90-b.
3. Muhamedov N., Ramatjonov R. Diniy va dunyoviy ma'rifat uyg'unligi // Toshkent islom universiteti ilmiy-tahliliy axboroti. – T.: 2003. – № 3. 36 – 42-b.
4. Miraziz A'zam. Tafakkurning yorqin yulduzi // Ma'rifat. – T.: 2005-yil 27-avgust.
5. Jo'raboyev O. Navoiy ehtirom ko'rguzgan ayol // Hurriyat. – T.: 2003-yil 14-may.
6. Boltayev M. Dunyoni anglagan ko'ngil // Saodat. – T.: 1993. № 8. 7-b.

Internet

1. www.edu.uz
2. www.yahoo.com
3. www.referat.ru

Mustaqil ish sarvarag'ini yozish

Talaba izlanishining baholash mezonini uning mustaqil ish sarvarag'ini (ustunini) to'ldirishida namoyon bo'ladi. Shuning uchun har qanday sharoitda ham kurs ishi, mustaqil ish, diplom ishi bo'lishidan qat'iy nazar, uni belgilangan me'yorlarda bajarish talab etiladi.

Mustaqil ish sarvarag'ida ish bajarilayotgan tashkilot nomi, mustaqil ish yozuvchining ismi, familiyasi, mavzu, mustaqil ishni qabul qilgan shaxsning ilmiy darajasi, unvoni, ismi, familiyasi, shahar, yil yozilgan bo'lishi kerak.

Mustaqil ish sarvarag'ining matn oxirida nuqta qo'yilmaydi.

Talaba mustaqil ish sarvarag'ini estetik qiziqishi, tafakkuridan kelib chiqib bezatishi mumkin.

Quyida mustaqil ish sarvarag'ini yozish namunalari ko'rsatilgan.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA
AMALIYOTI, FALSAFA” KAFEDRASI

FALSAFA FANIDAN

FALSAFADA INSON MUAMMOSI

mavzusida yozilgan

MUSTAQIL ISH

Bajardi:

BTSTI yo‘nalishi II kurs
201-guruhi talabasi M.Karimova

Qabul qildi:

f.f.n., dots. Z.Is‘hoqova

NamDU

2014

22

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**“DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA
AMALIYOTI, FALSAFA” KAFEDRASI**

FALSAFA FANIDAN

**MAVZU: FALSAFADA ONG VA
RUHIYAT MUAMMOSI**

MUSTAQIL ISH

**Bajardi: Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari yo‘nalishi
II kurs 203-guruhi talabasi A.Muhiddinov**

Qabul qildi: f.f.n., dots. Z.Is‘hoqova

NamDU

2014

23

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA
AMALIYOTI, FALSAFA” KAFEDRASI

“FALSAFA” FANIDAN

**“I.A.Karimovning “Yuksak
ma'naviyat – yengilmas kuch”
asarining falsafiy mohiyati”
mavzusida**

MUSTAQIL ISH

Bajardi: Tarix yo'nalishi II kurs
202-guruhi talabasi G.Aliyeva

Qabul qildi: f.f.n., dots. Z.Is'hoqova

NamDU

2014

24

Mustaqil ishni rasmiylashtirish

Ilmiy rahbarga taqdim etiladigan mustaqil ish kompyuterda 12-shrift, 1,5 interval oralig'ida A4 shaklidagi qog'ozning bir tomonida chapdan – 2,5 sm, o'ngdan – 1,5 sm, yuqori va pastidan – 2 sm dan kam bo'lmagan hoshiya qoldirilgan holda terilishi talab etiladi. Matn sahifalari tartib raqamlariga ega bo'lishi lozim. Tartib raqamlari bir varaqdan ikkinchi varaqqa o'tadigan va uchinchi betdan boshlanishi (birinchi va ikkinchi varaq – bu titul varag'i va ish rejasi bo'lib, nomerlanmaydi) lozim bo'ladi. Varaq tartib raqami yuqoriga o'rtadan yoki o'ng tomonga qo'yiladi.

Mustaqil ish hajmi 16 – 20 betdan oshmasligi lozim. Mustaqil ish quyidagilardan tashkil topadi:

- a) har bir savol, savolcha (qism) varag'i tartib raqami ko'rsatilgan ish rejasi;
- b) kirish (tartib raqami qo'yilmaydi);
- c) manbalarga havolalar keltirilgan savol va savolchalarga (qismlarga) bo'lingan matn ifodasi;
- d) xulosa (tartib raqami qo'yilmaydi);
- e) foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;
- f) jadval, diagramma, grafik, rasm va chizmalardan tashkil topgan ilovalar.

Mustaqil ishni baholash

Mustaqil ish 100 balli tizimda ilmiy rahbar tomonidan baholanadi va 5-balli bilimni baholash quyidagicha amalga oshiriladi:

86 – 100 ball – “a'lo”

70 – 85 ball – “yaxshi”

51 – 69 ball – “o'rta”

51 balldan past – “qoniqarsiz”

Mustaqil ishni baholashda quyidagi shartli ko'rsatkich va baholash mezonlari qo'llaniladi:

Baholash ko'rsatkichlari	Mustaqil ishni baholash mezonlari
<p>1.1. Mustaqil ishning matn yangiligi</p> <p>Maksimal baho – 20 ball</p>	<ul style="list-style-type: none"> - muammo va mavzu dolzarbligi; - muammo qo'yilishi yangililigi va mustaqilligi, muammo tahlili uchun tanlangan yangi jihatlar shakllantirilishi; - muallifning ilmiy layoqati, mavzu yuzasidan mulohaza yuritishdagi mustaqilligi
<p>1.2. Muammo mohiyatini ochib berilishi darajasi</p> <p>Maksimal baho – 30 ball</p>	<ul style="list-style-type: none"> - Mustaqil ish rejasining mavzuga mosligi; - mavzu mazmunining mustaqil ish mavzusi va rejasiga mos kelishi; - muammo asosiy tushunchalarining to'liqligi va ochib berilishi doirasi; - materiallar bilan ishlash uslub va usullari asoslanganligi; - adabiyot bilan ishlash mahorati, materiallarni tizimlash va tartiblashtirish; - qarab chiqilayotgan masala bo'yicha har xil qarashlarni umumlashtirish, solishtirish bo'yicha ko'nikma, asosiy mulohaza va xulosalarni dalillash
<p>1.3. Manbalar tanlash asoslanganligi</p> <p>Maksimal baho – 20 ball</p>	<ul style="list-style-type: none"> - muammo bo'yicha adabiy manbalarni doirasi, ulardan foydalanish to'liqlik darajasi; - muammo bo'yicha eng yangi manbani jalb etish (jurnalda chop etilgan, ilmiy ishlar to'plamlari va b.)
<p>1.4. Rasmiylashtirish qoidalariga amal qilinganligi</p> <p>Maksimal baho – 15 ball</p>	<ul style="list-style-type: none"> - foydalanilgan adabiyotlarga to'g'ri havola qo'yish; - ifoda to'g'riligi va dizayni; - muammo atamalari va tushunchalar apparatidan samarali foydalanish; - referat hajmiga qat'iy rioya qilinishi; - rasmiylashtirish madaniyati: xat boshilarni ajratish
<p>1.5. Ravonlik, savodlilik</p> <p>Maksimal baho – 15 ball</p>	<ul style="list-style-type: none"> - orfografik va sintaktik xatoliklar bo'lmasligi, stilistik tafovutlar yo'qligi; - xatoliklar, qisqartirilgan so'zlar, umumiy qabul qilinganidan tashqari, bo'lmasligi; - nutq ravonligi, mavzuning mohiyatini anglanganlik darajasi

“Falsafa” fanidan ishchi o‘quv dasturi bajarilishining kalendar tematik rejasi

t/r	Modul va mavzu nomlari	Mashg'ulot turi	Ajratilgan vaqt	Talaba mustaqil ishi mazmuni va mazmuni	Hisobot shakli	Bajarilishi haqida ma'lumot		O'qituvchi imzosi
						Soat	Sana	
I modul								
1	Falsafaning predmeti va asosiy mavzulari. Falsafiy dunyoqarash	Ma'ruza	2	Dunyoqarash tushunchasi	Mustaqil ish	2		
2.	Falsafaga kirish. Falsafa fanining bahs mavzulari, jamiyatdagi o'rni, asosiy vazifalari	seminar	2	Falsafada vorislik va yangilanish dialektikasi	mustaqil ish	2		
3.	Falsafaning asosiy yo'nalishlari, fanlar tizimidagi o'rni va vazifalari. Mustaqillik va falsafiy dunyoqarashning yangilanish zaruriyati	ma'ruza	2	Falsafada milliylik va umuminsoniylik tamoyili	test	2		
4.	Falsafa tarixi. Hozirgi zamon jahon falsafasi	seminar	2	Aflotunning falsafiy qarashlari	mustaqil ish			
5.	Markaziy Osiyodagi falsafiy fikrlar va uning jahon madaniyatida tutgan o'rni	ma'ruza	2	Tasavvuf falsafasi	ijodiy ish	2		
6.	Olam va odam: falsafiy talqin. Tabiat falsafasi	seminar	2	Falsafiy qonunlar	ko'rgazmali qurol tayyorlash	2		
7.	O'rta asrlar va yangi davr Ovropadagi falsafiy fikrlar	ma'ruza	2	Axloq va dinning o'zaro munosabati	mustaqil ish	2		
8.	Borliq falsafasi. Borliqning atributlari	seminar	2	Harakat va uning shakllari	ijodiy ish	2		

II modul							
9.	Olam va odam: falsafiy talqin. Tabiat falsafasi	ma'ruza	2	Hozirgi zamon falsafasi	mustaqil ish	2	
10.	Falsafada usul va uslub muammosi. Falsafiy qonun va kategoriyalar	seminar	2	Falsafiy kategoriyalar	test	2	
11.	Borliq falsafasi	ma'ruza	2	Taraqqiyot falsafasi	ilmiy maqola tayyor- lash	2	
12.	Ong va ruhiyat. Bilish falsafasi	seminar	2	Ong va ruhiyat	mustaqil ish	2	
13.	Falsafiy qonun va kategoriyalar	ma'ruza	2	Falsafada hayot tushunchasi	ijodiy ish	2	
14.	Falsafada inson muammosi	seminar	2	Insonning ruhi va tanasi mushtarakligi	mustaqil ish	2	
15.	Bilish falsafasi	ma'ruza	2	Bilishning shakllari	ilmiy maqola tayyor- lash		
16.	Ijtimoiy falsafa. Qadriyatlar falsafasi (aksiologiya)	seminar	2	Ma'naviyat falsafasi	ijodiy ish	2	
17.	Inson falsafasi (antropologiya)	ma'ruza	2	Fan va din: munosabatlar dialektikasi	mustaqil ish	2	
18.	Umumbashariy muammolar falsafasi	seminar	2	Globalashuv- ning yoshlar hayotiga ta'siri	slaydli mustaqil ish		
	Jami		66				
	Ma'ruza		18				
	Seminar		18				
	Mustaqil ish		30			30	

“Falsafa” fanidan mustaqil ish mavzulari uchun rejalar hamda foydalaniladigan manba va adabiyotlar ro‘yxati namunasi

Mavzu. Dunyoqarash tushunchasi

Kirish

1. Dunyoqarash tushunchasi va uning mohiyati
2. Dunyoqarash turlari
3. Falsafiy dunyoqarash
4. Mustaqillik va falsafiy dunyoqarashning yangilanish zarurati
5. Yoshlar ongida yangicha dunyoqarashni shakllantirish vazifalari

Xulosa

Adabiyotlar

1. Karimov I. Ilmu fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilsin / Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. 2. – T.: O‘zbekiston, 1996.
2. Karimov I. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T. 5. – T.: O‘zbekiston, 1997.
3. Karimov I. Buyuk kelajak sari. – T.: O‘zbekiston, 1998.
4. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – T. Sharq, 1998.
5. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
6. Barkamol avlod orzusi. indagi ichindadir. – T.: Mehnat, 2001.
8. Skirbekk G., Nils G. Falsafa tarixi. – T.: Sharq, 2004.
9. Tohir Malik. Iymonlashish umidi. – T.: Yangi asr avlodi, 2004.
10. Falsafa. Akademik E. Yusupov tahriri ostida. – T.: O‘qituvchi, 1998.
11. Falsafa. Qomusiy lug‘at. – T.: Sharq, 1999.
12. Falsafa. Ma’ruzalar matni. – T.: O‘AJBNT, 2000.
13. G‘arb falsafasi. – T.: Sharq, 2004.

Mavzu. Falsafada milliylik va umuminsoniylik tamoyili

Kirish

1. Falsafada milliylik va umuminsoniylik
 2. Jahon falsafasi taraqqiyotida milliy falsafiy maktablarning o'рни
 3. Islom Karimov – istiqlol falsafasining asoschisi
 4. O'zbek falsafasida milliylik va umuminsoniylik tamoyillarining uyg'unligi
- Xulosa

Adabiyotlar

1. Karimov I. Ilmu fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilsin / Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. 2. – T.: O'zbekiston, 1996.
2. Karimov I. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili / Bunyodkorlik yo'lidan. T. 4. – T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T. 5. – T.: O'zbekiston, 1997.
4. Karimov I. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T. 8. – T.: O'zbekiston, 2000.
5. Karimov I. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T. 11. – T.: O'zbekiston, 2003.
6. Vatan saodati. – T.: Sharq, 1998.
7. Komilov N. Najmiddin Kubro. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1995.
8. Iskandarov B. Tasavvuf falsafasi. – T.: 1995.
9. Ma'naviyat yulduzlari. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.
10. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Ibn Sino, 1997.
11. Yo'ldoshev S. Antik falsafa. – T.: 1999.
12. Mo'minov I. O'zbekistonda tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan lavhalar. – T.: Fan, 1998.

Mavzu. Tasavvuf falsafasi

Kirish

1. Tasavvuf tushunchasi. Tasavvufning axloq falsafasi sifatidagi mohiyati

2. Tasavvufning g'oyaviy-ma'naviy ildizlari va asosiy oqimlari

3. Tariqatlar va ularning inson ma'naviy kamolotidagi ahamiyati

4. Tasavvuf ta'limotida komil inson muammosi

5. Tasavvuf ta'limotini o'rganishning zaruriyati va ahamiyati

Xulosa

Adabiyotlar

1. Karimov I. Olloh qalbimizda, yuragimizda. – T.: O'zbekiston, 1999.

2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.

3. Iskandarov S. Tasavvuf falsafasi. – T.: O'zMU nashriyoti, 2000.

4. Karimov E. Xoja Ahror hayoti va faoliyati / Mas'ul muharrir: D.A.Alimova. – T.: Ma'naviyat, 2003.

5. Kattayev K. Mahdumi A'zam va Dahbed. Risola. – Samarqand.: 1994.

6. Komilov N. Tasavvuf yoxud komil inson axloqi. Birinchi kitob. – T.: Yozuvchi, 1996.

7. Komilov N. Tasavvuf. Ikkinchi kitob. Tavhid asrori. – T.: O'zbekiston va G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1999.

8. Ma'naviyat yulduzlari / To'plovchi va mas'ul muharrir M.M.Xayrullayev. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.

